

“O‘ZBEKISTON STATISTIKA AXBOROTNOMASI” ILMIY ELEKTRON JURNALI

2023
2 (16)-SON

statmirror.uz

UDK: 331.5

MEHNAT BOZORINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

Mirzayeva Odina Imomnazar qizi,
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlari instituti tayanch doktoranti*
E-mail: mirzayevaodina@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologilardan foydalanib mehnat bozorini shakllantirish mavzusiga bag’ishlanadi. Maqolada raqamli iqtisodiyot, uni rivojlanish tendentsiyalari, raqamli iqtisodiyotga o’tishda mehnat bozorida yuzaga keladigan muommolar va ularni yechimlari, shuningdek mehnat bozorida raqamli texnologiyalar foydalanishning afzallik va kamchiliklari ko’rib chiqilgan. Maqolada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning raqamlashtirish sababli mehnat bozorida yuzaga keladigan o’zgarishlar borasidagi tadqiqotlari tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyotida sodir bo’layotgan o’zgarishlarning eng muhim ko’rsatkichi bu mehnat bozori bo’lib, raqamlashtirish jarayonlari ta’sirida juda muhim o’zgarishlarga duchor bo’ladi. Raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning turli sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish hisoblanib, maqolada mehnat bozorining va raqamli iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili keltirilgan. Bu sohani yanada rivojlantirish uchun xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, mehnat bozori, mehnat bozori infratuzilmasi, mehnat taqsimoti, zamonaviy ish o’rinlari, bandlik va mehnat munosabatlari, avtomatlashtirilgan ish joylari.

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена теме формирования рынка труда с использованием цифровых технологий в условиях цифровой экономики. В статье рассматриваются цифровая экономика, тенденции ее развития, проблемы, возникающие на рынке труда при переходе к цифровой экономике и пути их решения, а также преимущества и недостатки использования цифровых технологий на рынке труда. В статье анализируются исследования отечественных и зарубежных экономистов об изменениях на рынке труда в связи с цифровизацией. Наиболее важным

индикатором изменений, происходящих в рыночной экономике, является рынок труда, который подвержен значительным изменениям под влиянием процессов цифровизации. Процессы цифровизации представляют собой внедрение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в различные отрасли экономики, и в статье представлен анализ основных экономических показателей рынка труда и цифровой экономики. Даны выводы и предложения по дальнейшему развитию данного направления.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, цифровизация, рынок труда, инфраструктура рынка труда, разделение труда, современные рабочие места, занятость и трудовые отношения, автоматизированные рабочие места.

ANNOTATION. This article is devoted to the formation of the labor market using digital technologies in the digital economy. The article discusses the digital economy, its development trends, the problems that arise in the labor market during the transition to a digital economy and ways to solve them, as well as the advantages and disadvantages of using digital technologies in the labor market. The article analyzes the studies of domestic and foreign economists on changes in the labor market due to digitalization. The most important indicator of changes taking place in a market economy is the labor market, which is subject to significant changes under the influence of digitalization processes. Digitalization processes represent the introduction of information and communication technologies (ICT) in various sectors of the economy, and the article presents an analysis of the main economic indicators of the labor market and the digital economy. Conclusions and proposals for the further development of this direction are given.

Key words: digital economy, digital technologies, digitalization, labor market, labor market infrastructure, division of labor, modern jobs, employment and labor relations, automated workstations.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalaridan biri bu raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotining turli sohalariga kirib borishidir. Raqamli transformatsiya inson hayotini soddalashtirish, hayot sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Raqamli iqtisodiyot deganda raqamli texnologiyalar va ular bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha iqtisodiy faoliyat tushuniladi [1].

Raqamli iqtisodiyotga o'tish mehnat bozorida faoliyat olib boradigan mutaxassislarga bo'lgan talablarni o'zgarishiga va shu bilan birga mehnat bozori samaradorligini oshirishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi mehnat faoliyatining ko'plab operatsiyalarini avtomatlashtiradi, shu sababli xodimlarga bo'lgan ehtiyoj va ularga bo'lgan talablar sezilarli darajada o'zgaradi, shuningdek, samarali va tezkor ish qidirish, shu jumladan masofaviy ishlash imkoniyatini yaratadi.

McKinsey Global Institute (MGI) taqqiqotlariga ko'ra, kelgusi o'n yillikda dunyoda ish operatsiyalarining 50%i avtomatlashtirishi mumkin. Natijada mavjud bo'lgan ko'plab kasblar o'rniغا yangi kasb turlari paydo bo'ladi, bu esa ko'plab xodimlarni qayta tayyorlash yoki malakasini oshirishni talab qiladi [2].

The Future of Jobs ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib 85 million ish o'rni odamlar va mashinalar o'rtasidagi mehnat taqsimoti o'zgarishi natijasida almashtirilishi mumkinligini va ortiqcha ish o'rnlari soni 15,4% dan 9% gacha kamayishini proqnoz qilinmoqda [3].

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, innovatsion rivojlanish barcha mamlakatlarda olib borilayotgan ijtimoiy iqtisodiy islohotlar O'zbekistonda ham zamonaviy mehnat bozorini tashkil etilishiga zamin yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyot asosida mehnat bozorini tashkil etish, aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rnlarini tashkil etish mamlakatimiz oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Zamonaviy mehnat bozorini tashkil etishdan asosiy maqsad aholining turmush sifatini oshirishdan iborat. Buning uchun mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish, zamonaviy ish o'rnlarini yaratish, mamlakat aholisini, ayniqsa, kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ishchi kuchi zaxirasini aniqlash va zamon talablariga javob beradigan hamda o'z fikr mulohazalariga tayanib ish yurituvchi kadrlarni tayyorlash talab etiladi.

Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish assosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib turmush darajasini ta'minlash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo'lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Chunki mamlakatmizda yaratilayotgan ish o'rnlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi va

aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorini shakllantirish borasida ko'pgina mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqot olib bormoqdalar.

Professor Sh.R. Xolmo'minov va N.U. Arabovlarning "Mehnat bozori infratuzilmasi" nomli o'quv qo'llanmasida mehnat bozori infratuzilmasi va uning tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilib, uni rivojlanirish samaradorligini kompleks baholash va istiqbollashtirish uslubiyati hamda davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlanirish samaradorligini oshirishning strategik kontseptsiyasi ishlab chiqilgan [5].

K.X. Abduraxmanov sun'iy intellektni joriy etish sharoitida mehnat bozorini o'zgartirish mavzusida tadqiqot olib borgan bo'lib, u sun'iy intellektning ish o'rinlariga kutilayotgan ta'siri haqidagi ma'lumotlarni o'rganib, munosib ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini muhokama qiladi va mehnat bozori uchun qanchalik imkoniyatlar va xavflarni yaratishini o'rganib chiqqan [6].

Akademik S.S. G'ulomov va boshqalarning "Raqamli iqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmasida boshqaruvning yangi ob'ektlari-platformalar va biznes iqtisodiy tizimlari, biznesni boshqarishning yangi tamoyillari, raqamli iqtisodiyotning zamонавиу axborot texnologiyalarini rivojlanirish va qo'llashda yuzaga keladigan muammolar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, moliya-bank tizimini isloh qilish kontseptsiyasi berilgan, blokcheyn, kriptovalyuta, Bitkoin tushunchalari va ularning orasidagi farq, shuningdek, ulardan O'zbekistonda foydalanish risklari, sun'iy intellekt va jahon iqtisodiyotida raqamlashtirishning zamонавиу tendentsiyalari ochib berilgan [7].

Rus olimi S.G. Yermolayeva "Рынок труда" nomli o'quv qo'llanmasida mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishi, uning turlari va shakllari, ishslash mexanizmi, mehnat bozori modellari hamda ishsizlikni kamaytirish yo'llari va ish bilan bandlikni tartibga solish mexanizmlari tadqiq etilgan. Shuningdek, mavzuga doir jihat bo'yicha aholini ish bilan ta'minlash dasturi va ish bilan bandlik xizmati faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tasnifining ilmiy asoslari tadqiq etilgan [8].

Rus olimi M.V. Ribkinaning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mehnat bozorini rivojlanirishning asosiy muammolari ko'rib chiqiladi. Raqamli iqtisodiyot dunyoning barcha mamlakatlariga iqtisodiy sohada yangi yo'nalishlarni rivojlanirish paradigmaсини taqozo etmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning mehnat bozori holatiga ta'siri o'rganildi, uning bir qator yangi xususiyatlari ko'rsatildi. Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni jinsi va maqomi bo'yicha tahlil qilinib, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq o'zgarishlar kadrlarni qayta tayyorlash va tayyorlash masalalariga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan. Mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda zamonaviy Rossiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhimligi ta'kidlangan. Tadqiqotlar natijasida aniqlangan muammolarni hal qilish bo'yicha taklif qilingan chora-tadbirlar [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismlari va ularning o'zaro samarali aloqadorligini ta'minlashning axborot-analitik bazasini takomillashtirish bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi hamda ish bilan bandlik xizmati faoliyatining samaradorligini oshirishning axborot dasturiy va uslubiy ta'minoti usullaridan foydalanish zarurati asoslandi.

Hozirgi vaqtida mehnat bozorida axborotlar roli jiddiy ravishda o'smoqda. Boshqaruv maqsadlari uchun axborotlarga yuqori ehtiyoj va axborot jarayonlarining shiddatli rivojlanishi uning infratuzilmasi tarkibiy qismlari yaratishni bиринчи о'ringa olib chiqadi. Axborotli infratuzilma hisoblash texnikasi, kommunikatsiya vositalari, uslubiy va dasturiy ta'minlash, faoliyatning yordamchi turlarini qamrab oladi. Hisoblash texnikasi bilan jihozlashni yetarli darajada ta'minlash maqsadida hisoblash vositalari bozorining narxi arzonlashmoqda. Kishilik faoliyatining tegishli sohalarida samarali ishslash uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnik, siyosiy, iqtisodiy va har qanday axborotlar hajmining o'sishi boshqaruvda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi ilmiy tadqiqotlarda ilk bor 1995-yilda qo'llanilganiga qaramay, hozirgi vaqtida raqamlashtirishning mehnat bozoriga ta'siri jarayonlarini o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Buning sababi shundaki, to'rtinchı sanoat inqilobiga o'tish davrida texnologiyani rivojlantirish ko'lami va sur'ati avvalgi uchtasiga xos bo'lganidan tubdan farq qiladi [10].

Raqamlashtirish - bu mehnat munosabatlarining tabiatiga, ularning ko'proq moslashuvchanligiga, fuqarolik-huquqiy munosabatlarga o'xshashligiga va shtatlar va mintaqalardagi bandlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng yorqin zamonaviy tendentsiyalardan biridir. Jamiyat rivojlanishining sanoatdan postindustrial davriga bosqichma-bosqich o'tishi, zamonaviy iqtisod fani va qonunchiligidagi raqamli iqtisodiyot deb ataladigan Iqtisodiyot 3.0 dan Iqtisodiyot

4.0 ga o'tishi mehnat bozori va mehnat munosabatlariiga ta'sir etmay qolishi mumkin emas. Raqamlashtirishning mehnat munosabatlariiga ta'siri masalasi faqat oxirgi besh yil ichida mehnat munosabatlari bo'yicha ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi.

Raqamlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini bashorat qilish muammosi bandlikning o'sishiga yordam beradigan omillar va ishsizlikning o'sishiga yordam beruvchi omillarning natijaviy ta'sirini baholashning murakkabligi bilan bog'liq. Ish bilan bandlikni oshirishga yordam beradigan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yangi kasblar tufayli ish o'rinalining paydo bo'lishi;
- IT sohasining kengayishi hisobiga mavjud kasblarga talabning ortishi;
- vaqt ni qisqartirish maqsadida Internet orqali ish qidiradigan odamlar sonining ortib borishi;
- ish o'rinalri sonining ko'payishi;
- hodimlarga masofadan turib ishlash imkoniyatini beradigan ish o'rinalri sonining ko'payishi, bu ilgari jalb qilinmagan hududiy segmentlardan foydalanish imkonini beradi.

Raqamlashtirish bir tomondan bandlikni ta'minlashga yordam bersa boshqa tomondan ishsizlikning ko'payishiga ham turtki bo'ladi. Ishsizlikning o'sishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- ish joylarini avtomatlashtirish, bu esa bir qator kasblarni talabdan mahrum qiladi;
- yuqori malakali ishchilarga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi va ishchilarni tayyorlash o'rtasidagi vaqtning kechikishi, natijada tarkibiy ishsizlik paydo bo'lishi mumkin.

Endi, raqamlashtirishning bandlikka ta'siri masalasi bo'yicha tadqiqotchilar va ekspertlarning prognozlari va baholashlarini ko'rib chiqaylik.

Makroiqtisodiy tahlil va qisqa muddatli prognozlash markazi ma'lumotlariga ko'ra, raqamlashtirishni rivojlantirish 12,5 million xodimni ishdan bo'shatilishiga sabab bo'lishi mumkin [11].

McKinsey konsalting guruhi tadqiqotlarida keltirilgan prognozlar shuni ko'rsatadi, 2036-yilga borib odam soatda ko'rsatilgan ishlarning 2 dan 50% gacha avtomatlashtirilishi va 2066-yilga kelib bu ulush 46% dan 99% gacha bo'lishi mumkin [12].

Zamonaviy ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayishi umumiy ish o'rinalri sonining ko'payishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda [13]. Birinchidan, aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ish o'rinalri yaratilmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2016-yilda ushbu sohada 8,2 million kishi band bo'lgan, bu o'sha davrda band bo'lganlarning 3,7 foizini tashkil qilgan. So'nggi yillarda raqamlashtirish sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi mutaxassislarining ham mutlaq soni,

ham umumiy xodimlar sonidagi ulushi muttasil oshib bormoqda. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar ta'sirida iqtisodiyotning qator tarmoqlarida, birinchi navbatda, xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rirlari yaratilmoqda.

Aksariyat mamlakatlarda mehnatga talabning ortishi madaniyat, dam olish, qurilish, sog'liqni saqlash, sanoat, tadbirkorlik xizmatlari, savdo va transport, energetika va qishloq xo'jaligida, kamroq darajada davlat sektorida kuzatilmoqda. Ishchi kuchiga talabning qisqarishi ishlab chiqarishda yuz berdi. Shu bilan birga, onlayn platformalar orqali turar joy, transport va boshqa xizmatlar sohalarida band bo'lganlar soni ortib bormoqda, bu ish o'rirlarida moslashuvchan, vaqtinchalik va to'liq bo'limgan ish vaqtini sezilarli darajada oshgan.

Har xil faoliyat turlari va operatsiyalarning yanada moslashuvchanligi, globallik va pudratchilar bilan o'zaro hamkorlikning shaffofligi o'rtasidagi chegaralarni xiralashtirish tendentsiyalari kelajakda faqat kuchayadi. Xodimlar har doim tashkilotlar uchun muhim bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida ishni tashkil etishning an'anaviy rejimidan va to'liq ish kunidan tashqariga chiqadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining 2019-yildagi yubiley sessiyasiga tayyorlangan "Mehnat kelajagi bo'yicha global komissiya" hisobotida shunday deyiladi: "Texnologik yutuqlar - sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va robototexnika - yangi ish o'rinalini yaratadi, biroq ish o'rinalini yo'qotadiganlar ish o'rinalini ishga soladi. bu o'tish davrida ular yangi imkoniyatlardan foydalanishga eng kam tayyor bo'lishlari mumkin. Bugungi kunda talab qilinadigan ko'nikmalar ertangi ish bilan mos kelmaydi va yangi olingan ko'nikmalar tezda eskirishi mumkin." [14].

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining turli tarmoqlarida salmoqli o'rinalardan birini egallab kelayotgan raqamli texnologiyalardan biri bu sun'iy intellekt tizimlari hisoblanadi. Sun'iy intellekt bu ongli mavjudotlarga xos bo'lgan funktsiyalar va vazifalarni bajarish uchun yaratilgan intellektual tizimdir. Mehnat bozorida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, vaqt va harajatlarni ham tejash imkoniyatini beradi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. 1-jadvalda davlatlar bo'yicha SI loyihalariga kiritilgan sarmoyalarning foizdagi ulushi tasvirlangan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlilli shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni ishlab chiqish va joriy etishga sarmoya kiritish bo'yicha global miqyosda asosiy ulush AQShga to'g'ri keladi, u 2011- yilda 41,3 foizni tashkil etgan. Biroq, 2022-yilga kelib, Qo'shma Shtatlarning global miqyosdagi ulushi 21,11% gacha kamaydi, chunki butun dunyo mamlakatlari sun'iy intellektni rivojlantirish va joriy etishga ko'proq sarmoya kiritmoqda. O'zbekiston 2020- yilgacha sun'iy intellektni rivojlantirish va joriy etishga sarmoya kiritmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagagi "Sun'iy intellekt

texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinganidan so‘ng O‘zbekistonda sun‘iy intellektni rivojlantirish va joriy etish bo‘yicha loyihalarga investitsiyalar kiritila boshlandi. Ushbu hujjat sun‘iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi va uning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shunday qilib, 2022-yilda O‘zbekistonda sun‘iy intellektni rivojlantirish va joriy etishga investitsiyalar ulushi jahon miqyosida 0,09 foizni tashkil etdi.

1-jadval**Davlatlar bo‘yicha SI loyihalariga qo‘sghan hissasi [15]**


Mamlakatlar	2011	2015	2020	2021	2022
AQSH	41,30	32,33	22,61	20,90	21,11
Yevropa (27)	25,06	22,35	18,08	17,33	16,15
Xitoy	1,86	8,00	8,23	10,55	12,00
Hindiston	0,65	2,39	16,25	13,85	12,97
Yaponiya	6,89	2,95	1,77	1,78	1,41
Rossiya	0,08	0,52	1,31	1,04	0,89
Qozog’iston	0,00	0,02	0,03	0,05	0,06
O‘zbekiston	0,00	0,00	0,03	0,04	0,09

O‘zbekistonda eksperimental va innovatsion tadqiqotlar doirasida sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning alohida rejimi joriy etilmoqda. Maxsus rejim innovatsion biznes modellari, SI texnologiyalari asosida xizmatlar ko‘rsatish mahsulotlari va usullarini ishlab chiqish, ularni joriy etish va amaliyotda qo’llash uchun qulay va maqbul ekotizimni yaratishga qaratilgan.

Mamlakatimizda boshlangan tub islohotlarning asosini 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tashkil etadi va unda aholining ish bilan bandligi masalasi alohida o‘rin tutadi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida mehnat bilan band bo‘lganlar soni yildan yilda oshib bormoqda. 1-rasmida 2010-2021- yillarda iqtisodiyotda mehnat bilan band bo‘lganlar soni tasvirlangan bo‘lib, 2010-yilda 11628,4 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 13538,9 ming kishiga yetgan. Bu esa 11 yil davomida bu ko‘rsatkich 116%ga oshganligini anglatadi.

O‘zbekistonda demografik holatning keskinligi, aholi sonining yuqori sur’atlarda o‘sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasini o‘ta dolzarb qilib qolmoqda.



Manba: www.stat.uz


1-rasm. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida mehnat bilan band bo'lganlar soni(ming kishi)

O'zbekistonda 2021-yil 1-yanvar holatiga mehnat resurslari 19,1 mln. kishi, iqtisodiy faol aholi 14,8 mln. kishi, jami ish bilan bandlar 13,2 mln. kishi, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 mln. kishi (43,3%), iqtisodiyotning norasmiy sektorida 5,6 mln. kishi (42,8%), ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar 1,6 mln. kishi (10,5%) va chet elda ishslash uchun ketganlar 1,8 mln. kishini tashkil qildi.

O'tgan 5 yil ichida mehnat sohasida ham aksariyat jarayonlarni raqamlashtirish, mehnat statistikasini xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga moslash, uning real ko'rsatkichlarini ta'minlash, ish bilan bandlikning yangi shakllarini rivojlantirish va keng foydalanish, shaffoflikni ta'minlash va mumkin qadar aholiga barcha xizmatlarni elektron platformalar orqali qulay va tezkor amalga oshirishga erishildi.

Mamlakatimizda AKT sohasi bo'yicha faoliyat olib borayotgan tashkilot va korxonalar soni ham yildan yilga ko'payib borishi, mamlakatimizda AKT rivojlanishiga bo'lgan e'tiborning natijasidir. 2023 1- chorak natijalariga ko'ra, mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha "Axborot va aloqa" sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 12 204 tani tashkil etmoqda. 2016-yilda mamlakatimizda 6 370 ta Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar mavjud edi. 2023-yilga kelib, bu sohada faoliyat olib borayotgan yuridik shasxlar soni 2 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni 53782 tani tashkil etadi. 2015-yilda bu ko'rsatkich 33413 taga teng edi. O'tgan 6 yil davomida AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni 160%ga oshganligini guvohi bolishimiz mumkin.[16]



Manba. www.stat.uz

2-rasm. AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni (kishi)

Yangi texnologiyalar elektron ro'yxatga olish, integratsiyalashgan va avtomatlashgan holda xizmat ko'rsatish sifatida inson omili, uning ishtirokini imkon darajada kamaytirib, iqtisodiy birliklarning transaksion xarajatlarini kamaytirishga, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyot yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini talab qiladi hamda aholining ish bilan bandligini, xususan mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida ro'yxatga olish va qulay rasmiylashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga keng kirib kelishi barcha sohalarda mehnat faoliyatida internetdan foydalanish "haqiqiy" va "virtual" dunyo bilan uzviy bog'lanish sharoitida bo'lishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini 2020-yilda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-aparat kompleksini joriy etilishida ko'rish mumkin. Ushbu elektron axborot tizimida idora va tashkilotlarda band bo'lganlar, shaxsga oid, vakant ish joylari, to'g'risidagi ma'lumotlar to'plangan.

Shu bilan birga, ish izlovlchilar <http://ish.mehnat.uz/> saytida viloyat, tuman (shahar), soha yo'nalishlari, kasb, ta'lim darajasi kesimida va istalgan maosh "O'zbekiston statistika axborotnomasi"

hajmi doirasida vakant ish joylari haqidagi ma'lumotlardan foydalanishlari rasmiy ish bilan bandlik darajasini oshirish imkoniyatini bermoqda.

Yangi texnologiyalar elektron ro'yxatga olish, integratsiyalashgan va avtomatlashgan holda xizmat ko'rsatish sifatida inson omili, uning ishtirokini imkon darajada kamaytirib, iqtisodiy birliklarning transaksion xarajatlarini kamaytirishga, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, respublikada 2030-yilga kelib, aholi soni 2020-yilga nisbatan 20,7% yoki 7017,9 ming kishiga, mehnat resurslari 21,9% yoki 4192,1 ming kishiga, ish bilan band aholi 16% yoki 2125,5 kishiga oshishi va norasmiy mehnat bilan bandlar ulushi 20% ga tushishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar istiqbollashtirish davrida band aholining yiliga o'rtacha 1,15% dan oshishi va keng qamrovli kompleks tadbirlarni amalga oshirish natijasida norasmiy mehnat bilan bandlar sonining yiliga o'rtacha 5% ga kamayishi natijasida ro'y beradi [17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maqolamizda mehnat bozorini yangicha tarzda shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning texnologiyalarining ahamiyati, raqamli texnologiyalarning mehnat bozori munosabatlarda foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari haqida so'z yuritildi.

Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot modeliga o'tish davlat darajasida ham, biznes tuzilmalari darajasida ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi tubdan yangi, sifat jihatidan o'zgarishlar bilan birga sodir bo'lmoqda. Iqtisodiy birliklarni ro'yxatga olish va norasmiy bandlikni rasmiylashtirish munosib va samarali ish bilan bandlik ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berib o'tamiz:

- Ijtimoiy-demografik omillarni muvofiqlashtirish, ya'ni aholi sog'lig'ini himoya qilish va sog'lom, yuqori malaka va bilimli avlodni voyaga yetkazish maqsadida demografik vaziyatni barqarorlashtirish;

- bandlik va mehnat munosabatlari sohasidagi qonunchilik hujjatlarini liberallashtirish; ish beruvchining xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish imkoniyatlarini kengaytirish; yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartish doirasida norasmiy mehnat bilan bandlarni legallashtirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish; "norasmiylikka" o'tishga undovchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish.

- aholi orasida korrupsiya, yashirin iqtisodiyot va norasmiy mehnat bilan bandlik haqida salbiy ko'rinishni shakllantirish, aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish; norasmiy faoliyatga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдрахманова Г.И., Вишневский К.О., Гохберг Л.М. и др. Что такое цифровая экономика? Тренды, компетенции, измерение [Текст]: докл. к XX Апр. междунар. науч. конф. по проблемам развития экономики и общества, Москва, 9–12 апр. 2019 г. – 82 с.
2. Davos 2020: Here's what you need to know about the future of work [Электронный ресурс] // World Economic Forum. – Режим доступа: <https://www.weforum.org/agenda/2020/01/davos-2020-future-work-jobs>.
3. Результаты доклада The Future of Jobs, 6 октября – 2021
4. B. Tagaev 2016-2021 yillarda mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar sharhi - Review.uz
5. Sh.R. Xolmo'minov, N.U. Arabov. "Mehnat bozori infratuzilmasi". // Fan va texnologiyalar. – 2016 – 332 b.
6. Абдурахманов К.Х. Трансформация рынка труда в условиях внедрения искусственного интеллекта // Экономика труда. – 2023. – Том 10. – № 2. – С. 227-246.
7. S.S. Gulyamov, R.X. Ergashev, S.N. Xamrayeva "Raqamli iqtisodiyot" - (o'quv qo'llanma),- Т.: – 2020. – 367 b.
8. Ермолаева, С.Г. Е74 Рынок труда: учебное пособие/ С.Г. Ермолаева. - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, – 2015. – 108 с
9. Рыбкина М. В. и др. Развитие рынка труда в условиях становления цифровой экономики. "Вестник университета". № 11, – 2019. – С. 36-41
10. Кознов А. Б. Влияние цифровизации на рынок труда. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol.4-2. – 2019; – С. 177-179.
11. Белоусов Д. Развитие цифровой экосистемы: прямые и косвенные эффекты для экономики / V Санкт-Петербургский экономический конгресс "Форсайт Россия: новое индустриальное общество. Будущее" (СПЭК-2018). [Электронный ресурс]: Электрон. версия печат. публ. URL: <http://www.forecast.ru>
12. Калабина Е.Г. Новая индустриализация, технологические изменения и сфера труда промышленных компаний // Вест. Ом. Ун-та Сер. "Экономика". – 2017. №1(57). – С. 72- 81.
13. Скляр М. А., Кудрявцева К. В. Мировой рынок труда под влиянием цифровизации // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2018;(6) – С. 26-30.
14. 108-я сессия Международной конференции труда. – 2019. <http://www.rosprofprom.ru>
15. OECD.AI (2023), visualisations powered by JSI using data from Github, Дата обращения 14/2/2023. <http://www.oecd.ai>

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. <http://www.stat.uz>

17. B.Tagayev. 2016-2021-yillarda Mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar sharhi. <http://www.review.uz>.